

MAQSUD SHAYXZODA JALOLIDDIN MANGUBERDI TAQDIRI VA HAQIQATNI HIMOYA QILGAN IJODKOR

Mo'minjonova Shaxina Mo'minjon qizi

Toshkent davlat transport universitet TNI-7 talabasi

Annotatsiya: Ko'pqirrali iste'dod sohibi Maqsud Shayxzoda she'rlar va dostonlar bilan bir qatorda, juda yuksak badiiy quvvatga ega bo'lgan dramalar yaratgan ijodkor ham hisoblanadi. Xususan, Maqsud Shayxzoda ilm va ijod borasidagi bebaho merosidagi gultojlaridan biri esa ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan "Jaloliddin Manguberdi" (1944-yil) tragediyasida o'z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashgan so'nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. Maskur maqolada Maqsud Shayxzodaning xalqimiz tarixiga, jumladan, Jaloliddin Manguberdi taqdiri va kurashiga odilona yondoshganligi va haqiqatni himoya qilganligi haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: drama, tragediyasi, she'r, doston

MAQSUD SHEIKHZADA JALALUDDIN MANGUBERDI IS AN ARTIST WHO DEFENDS FATE AND TRUTH

Abstract: Maqsud Sheikhzadeh a multi- talented artist, is a creator of dramas with high artistic power, along with poems and epics. In particular, one of Maqsud Sheikhzadeh's priceless legacy of science and creativity is the tragedy "Jaloluddin Manguberdi" (1944), written during the Second World War, which historically accurately and truthfully described the bravery of the King of Khorezm after fighting against the Mongol invaders for the freedom and independence of his country. This article talks about Maqsud Sheikhzadeh's fair approach to the history of our nation, Jalaluddin Manguberdi's struggle, and his defense of the truth.

Key words: dramas, tragedies, poems, epics.

МАКСУД ШЕЙХЗАДА ДЖАЛАЛУДДИН МАНГУБЕРДИ- ХУДОЖНИК ЗАЩИЩАЮЩИЙ СУДЬБУ И ПРАВДУ.

Аннотация: Максуд Шехзаде- разносторонне талантливый художник, создатель драм высокой художественной силы, а также стихов и эпосов. В частности, одним из шедевров бесценного наследия Максуд Шейхзада в научном и творческом плане является трагедия Джалалуддина Мангуберди “О свободе своей страны”, написанная в годы Второй мировой войны. Трагедия Джалалуддина Мангуберди, сражавшегося с монгольскими захватчиками за свободу и независимость своей страны исторически точно и правдиво описала храбрость хорезмийского царя. В статье отмечается, что Максуд Шейхзаде справедливо подходит к истории нашего народа, в том числе Джалалуддину Мангуберди, его борьбе и защите правды.

Ключевые слова: драмы трагедии стихи эпопеи.

Kirish: Shunday iste'dod egalari bo'lishadiki, ular o'zlari barhayotlik davridayoq tengdoshlari, zamondoshlarining hurmat- e'tiborini osonish baxtiga muvassar bo'lishadi. Ijoddagi bu xil holat faqat bir kishining omadi bo'lib qolmay, balki butun bir davr adabiy muhitining ham omadi sanaladi. XX asr o'zbek adabiyotida shulardan biri lirik shoir, dramaturg, taniqli adabiyotshunos Maqsud Shayxzodadir. Uning mavjlanib oqayotgan kata daryodek xayotbaxsh va shifobaxsh buloqlar singari ta'mi tilingizda qoladigan dramalari o'zbek adabiyoti xazinasidan munosib o'rin olgan. Ijodkor she'riy to'plamlar yozish bilan bir qatorda, 1944-yilda tarixga murojaat qilib, o'zbek xalqining vatanparvar o'g'loniga bag'ishlab “ Jaloliddin Manguberdi” dramasini yaratdi. Shuni ta'kidlash lozimki, Maqsud Shayxzodaning ushbu asar 20-yillardagi ijodkor sifatidagi ilk qadami hisoblanadi. Jaloliddin Manguberdi mavzusi turkiy xalqlar adabiyotining doimiy murojaat qilingan mavzularidan hisoblanadi. Besh pardalik bu tarixiy dramada dramaturg Sulton Muhammad Aloviddin

Xorazmshohning o'g'li Jaloliddining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardavor kurashini qalamga olgan. Voqealar XII asrning 1-choragida Xorazm va uning atroflarida bo'lib o'tadi. Ushbu dramatik asarda obrazlar boshidan kechiradigan his-tuyg'u, fikr va kechirmalar drama asosida o'tkir xarakterlar va kuchli ehtirolarning shiddatli to'qnashuvi orqali yoritilib beriladi. V. Belinskiy "dramada hamma narsa bir maqsadga, bir mo'ljalga qarab yo'nalishi kerak" deb bejizga ta'kidlamagan.

Asosiy qism: 1944-yil... Ulug' Vatan urushi frontlarida g'alaba chaqmoqlari chaqnay boshlagan, hamma g'alaba muqarrarligiga ishonib, fidokorona mehnat qilayotgan paytlar edi. Sora Eshonto'rayev "Uyg'ur Og'a Farg'onadan hushxabar keltirdi: Maqsud Shayxzoda o'zbek xalqi tarixidan qahramonlik tragediyasini yozganligini, Vodil qishlog'idagi Usmon Yusupov qurdirgan ijodkorlar bog'ida Uyg'ur, Oybek, Usmon akalar qatnashuvida shu asarni intiqlik bilan kutdik"-deb hikoya qiladi. She'riy dramani o'zi o'qib bergan. Romantika, lirika, qahramonlik, jo'shqin hissiyot, ehtiros ga ko'proq moyil bo'lgan xamzchilar uchun bu tarixiy drama yangi bir kashfiyot bo'ldi. "Jaloliddin Manguberdi" Maqsud Shayxzodaning birinchi sahna asari bo'lishiga qaramay ham o'qishli, ham tomoshabop edi. Kinoteatrda har bir artist o'z roli ustida qattiq izlandi. Teatrda biror asar bunchalik ishtiyoq, bunchalik safarbarlik bilan repetisiya qilinganmas. Bu—yozuvchining kata omadi edi. O'zining muqaddas fikr va orzu-o'ylarini ifodalab:

Daqiq fanlar tanishtirar bizga dunyoni,

Koinotga ochib berar es darvozasin.

Olib tashlar niqoblarni sirlar yuzidan;

Zamon o'tar, vaxshat bitar, yomonlik ketar,

O'zgaradi dunyomizda dinlar, millatlar

O'zgaradi millatlarda tillar, odatlar,

Ammo fanning shavkatiga cho'kmaydi g'ubor,- deydi.

Bu insoniy fazilatlar, fikrimcha, uning vatanparvarlik tuyg'ulari bilan chambarchas bog'liq, uchrashuv va do'stona suhbatlarimizdan shunday qanoat hosil qildimki, Maqsud Shayxzoda uchun yurt-u elga samimiy muhabbat eng yuksak, eng muqaddas tuyg'udir. "Jaloliddin Manguberdi" asarida yanada mukammal ifodalanilgan." Mo'g'ul oti tuyog'I yetgan o'lkalarni nogahoniy qyun kabi ostin-ustun etib, xarobazorga aylantirgan, ming-minglab oilalarni mahf etgan, odamlarni elu-yurtidan ayirib, qiyratgan, talon-taroj qilgan Chingizxonning qonxo'r qo'shinlari dahshatidan sarosimaga tushgan Xorazmshoh Sulton Muhammad taxt-u tojini tashlab qochadi. Uning to'ng'ich o'g'li Jaloliddin Manguberdi Vatan himoyasi va ozodligi uchun tengsiz sabot va buyuk qahramonlik ko'rsatadi, balo-qazodek yopirilib kelayotgan yov yo'lini to'sadi. Dramaturg og'ir va qaltis holatlar girdobida tasvirlaydi. Murakkab, mashaqatli va tahlikaga to'la vaziyatlarda ham Jaloliddin sarosimaga tushmaydi. Vatan ishq, uni mardanavor kurashga, qahramonlikka otlantiradi. Jaloliddin yurt mustaqilligi uchun, uni chet el bosqinchilari asoratidan asrash uchun gurullab yonayotgan gulhanlar ustiga ot solishdan ham qaytmaydi." Egar ustida o'sib-ulg'aygan" idan faxrlanadi. Vatan tahlika ostida qolgan paytida saroylarning issiq va yumshoq og'ushida huzur-halovatda yashashni o'ziga or biladi, "Menga koshonadir oddiy bir chodir" deya xalq va qo'shinni Chingizxonga qarshi kurashga safarbar etadi. Saroy fisq-fujurlari girdomig tushib qolgan, hokimiyatni or-nomusli va jasur o'g'lga topshirishni ravo ko'rmay, el-ulus oldidagi burchini

bajarishga noqobil saltanatparast otasining hatti-harakatilar Jaloliddinni qattiq ranjitadi, ruhan azoblaydi, lekin irodasini buka olmaydi. Aksincha, u eng yuksak idrok va axloqiy qonunga amal qilib, “ Yurtni kim qo’riqlasa, udir hukmron!” deydi. Shu muqaddas da’vat bilan elni, barcha vijdonli odamlarni o’z atrofiga jipislashtiradi. Vatanparvarlik tuyg’usi sofdillik, ma’naviy poklik, do’stga sadoqat kabi oliyjanob hislatlar bilan birga uning qalbida mangu qaror topadi. “Qanchadan-qancha o’lkalarni toptagan, necha-necha uluslardan boj olgan” Chingizxonning nazdida esa inson zoti faqat nafratga loyiqdir, dunyoni changalzor, o’zini arslon, deb hisoblaydi”. “ Yuz odam mening yolg’iz itimga arzimaydi”, degan Chingizxon yovvoyi kuch-qudrat-u qilichnigina tan oladi. Shu sabdan, u Jaloliddin kabi mard, jasur sarkardaga hasad qilib ich-ichidan o’rtanadi. Atrofini qurshagan odamlarga mudom shubxa bilan qaraydi, ularni qo’rqoq va sotqin deb biladi. Xalqlarga asorat va o’lim keltirgan qonxo’r mustabitning ma’naviy olami mana shunday!”ⁱⁱ.

Maqsud Shayxzoda tarixiy materialni, moziyda (tarixda) kechgan voqealarni mahorat bilan ishlab, go’zal badiiy drammatik obida yaratgan edi. Maqsud Shayxzodaning o’zi ham ana shunday ulug’ vatanparvar shoir, yozuvchi va eng asosiysi dramaturg edi.

Xulosa: Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Maqsud Shayxzoda barcha zamonlarda bir xil ahamiyat kasb etib, millat taraqqiyotini belgilaydigan muhim masalalarni asosiy mavzu sifatida tanlab, vatandoshlar badiiy-estetik arashlari takomiliga hissa qo’shgan adibdir. Maqsud Shayxzoda XX asr adabiyoti, xususan, dramaturgiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo’shgan ijodkordir. Uning asarlari bugungi kunda, ham yoshlarimiz tarbiyasini mukammallashtirishga, ularni xalq va Vatan oldida, ma’naviy qadriyatlarimiz oldida burchdor ekanligini his qilishga

ko'maklashuvchi omil sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham ijodkorning asarlari respublika teatrlari repertuarlaridan doimiy o'rin egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otajonova. N.” Dramatik asarlar”
2. “M.Shayxzoda zamondoshlar xotirasida” T.,1983y. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
3. XX asr o'zbek adabiyoti Q. Pirmatov, I.Ikromov. Jizzax-2005.

ⁱ Nafisa Otajonova Sobirovnaning “ Umumta'lim maktablarida dramatic asarlarni o'rgatish “ Nukus-2011.

ⁱⁱ N.Karimovning “ Maqsud Shayxzoda “ kitobidan T., 1983y.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Mirzo Ibrohimov(Ozarbayjon xalq yozuvchisi) 16-17-betlar.